

Salamat KUDAYBERGENOV,

Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o'rtasida maxsus islom bilim yurti O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

E-mail: salamatpolatboyevich@mail.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent G.Kushakova taqrizi asosida

SCIENCE IS THE PRINCIPLE OF SOCIAL STABILITY

Annotation

In this article titled "Science as the basis of social prosperity the author brings forward important opinions based on scientifically urgent problems on the upbringing of the youth of our country." Islam is a religion of upbringing and education, and its main goal is to "educate and educate a perfect person" who has strong faith, high moral qualities, analytical thinking, comprehensive knowledge, and the power to improve well-being. deserves to be considered the vicegerent of the world and God on earth.

Key words: Science, popular culture, internet, occupation, social network, knowledge, book.

НАУКА – ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье «Наука – основа социальной стабильности» со стороны автора рассмотрены современные и актуальные проблемы духовно-нравственного воспитания современной молодежи, определены педагогические условия духовно-нравственного воспитания обучающихся в современных условиях. Ислам – это религия воспитания и образования, основной целью которой является «воспитать и вырастить полноценного человека», обладающего твердой верой, высокими нравственными качествами, аналитическим мышлением и всесторонне образованного человека, обладающего полномочиями на улучшение мирового благоустройства и достойного считается наместником Бога на земле.

Ключевые слова: Наука, популярная культура, Интернет, род занятий, социальная сеть, знания, книга социальная сеть, знания, книга.

ILM – IJTIMOYIY BARQARORLIK TAMOYILI

Annotatsiya

«Ilm-fan – ijtimoiy barqarorlik asosidir» nomli ushbu maqolasida muallif zamonaviy yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning zamonaviy va dolzarb muammolarini ko'rib chiqadi, zamonaviy sharoitda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik shartlarini belgilaydi. Islom – tarbiya va ta'lim dini bo'lib, uning asosiy maqsadi – mustahkam imon-e'tiqodli, yuksak axloqiy fazilatlariga, tahliliy tafakkurga, har tomonlama bilimli, farovonlikni yuksaltirish vakolatiga ega bo'lgan «komil insonni tarbiyalash va tarbiyalash»dir. dunyoning va Xudoning yerdagi noibi hisoblanishga loyiqdir.

Kalit so'zlar: Ilm, Ommaviy madaniyat, internet, kasb-hunar egallash, ijtimoiy tarmoq, bilim, kitob.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, [“Sharq yoki G'arb mamlakatlari bo'ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit'asi bo'ladimi – jahonning qaysi burchagida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'lsa, o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy, albatta.” [3:13].

Haqiqatan ham, jahon g'oyaviy kurash maydonida ma'naviy tahdidlar etnik birlik, milliy qadriyatlariga qarshi qaratilmoqda, diniy nizo va murosasizlik chiqarishga yo'naltirilmoqda. Geosiyosiy markazlar islom dini va musulmon mamlakatlarini ham mafkuraviy poligonga aylantirishga urinmoqda. Bu muqaddas dindan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga, uning o'sib borayotgan nufuzini pasaytirishga, qadriyatlarini obro'sizlantirishga harakatlar bo'lmoqda. Bunga yo'l qo'yimaslikni shu kungi ziddiyatli davrning o'zi taqozo etmoqda. Buning uchun dinga sog'lom munosabatni shakllantirish, bag'rikenglik tamoyilini hayot mezoniga aylantirish talab etiladi. Barqarorlikni ta'min etadigan asosiy omil ilmu ma'rifat hisoblanadi.

Islom ta'limoti va ma'naviyatining muhim jihatini ta'lim tashkil etadi. Muhammad Payg'ambarga birinchi nozil bo'lgan “al-Alaq” surasida ham ilmga da'vat bor. Birinchi vahiydanoq ilm olishga da'vat, avvalo, og'zaki shaklda bo'ldi, so'ng esa yozuv orqali bajarildi. Zero, yozuv muqaddas va ilohiydir. Shu bois u san'at darajasiga ko'tarildi. Qur'onga ko'ra, “Alloh taolo hamma narsadan avval qalamni yaratdi, unga: “Yoz!”- deb buyurdi. Qalam: Yo Rabbim, nimani yozaman? - deb so'radi. Alloh unga: “Qadarni yoz!”- dedi. Qalam shu onda bo'lgan va bo'ladigan narsalarni yozdi.” [8:28]

Islomda ilmga muhabbat bilan qaralganligi tufayli rivojlanish yuz berdi. Muhammad sallallohu alayhi vasallam hadislariga ko'ra: “[Olimlarning yomoni amirlarni ziyorat qilgani, amirlarning yaxshisi olimlarni ziyorat etganidir” [7:9] - deyiladi. Hadisning ma'nosi shuki, olimlar amirlarning qo'rquvi ostida yoki meni izzat ikrom qiladi degan tushuncha bilan biron manfaat izlab ziyorat qilsa, bu olimlarning yomonidir. Ammo shunday olimlar borki, kishilar ba'zan bilib, ba'zan bilmasdan, u taratgan nurdan bahra oladilar. Amirlar ham olimdan hamma vaqt yuksalishga chorlovchi kuch quvvat oladilar. Olimning esa amirga ehtiyoji yo'qdir. U badavlat va nur sochayotgan quyosh kabitdir” [7:10].

Islom ta'limotining muhim qismini tashkil qilgan ilmni ulug'lashning davomi sifatida donishmand olimlar ulug'lanadi. “Ilm ahli Payg'ambarlar keltirgan ta'limotlarni odamlarga yetkazadilar”, “Bir qabilaning o'limi bir olimning o'limidan yengilroqdir”, [5]–kabi hadislar borki, ilm o'rgatuvchi olim, donishmandlar jamiyatda hatto podshohdan ham ulug' sanalgan.

Yana bir haqiqat shundan iboratki, O'zbekiston Turon deb nomlangan iqlim sharoitining mo'tadilligi, Ovrupo va Osiyo qit'alari orasida hamda “Buyuk ipak yo'li” orqali bu qit'alar birlashadigan joyda ekanligi ham sivilizatsiya taraqqiyoti uchun o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan davlatdir. Ya'ni Osiyo va Ovrupo qit'alaridagi ilmiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarni tutashiruvchilik funksiyasini ham bajargan. Demak, mamlakatimiz jahon ilm taraqqiyoti sivilizatsiyasiga kattagina hissa qo'shgan xalqlar sirasiga kiradi, deyish uchun butun asos bor.

Istiqloq tufayli o'tmish tariximizga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Alloma bobolarimiz Imom Al-Buxoriy, Imom At Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubroning meroslari insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi, ahloqiy va falsafiy hikmatlari qaytadan jaranglay boshladi.

Bugungi kunda avlod-ajdodlarimiz tarixi tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. Xalqimizning bir necha ming yillik tarixiga oid darsliklar yaratilmokda. Asosiysi, xalqimiz tarixi va hayotini o'zida mukammal aks ettirgan asarlarining o'z ona tilimizda nashr etilayotganligi katta xursandchilikka sabab bo'lmoqda.

Xalq dardi bilan yashaydigan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida alohida e'tibor qaratgan masalalardan biri, ya'ni islom ma'rifati bo'lib, puxta ilmga ega bo'lmasdan, bu din haqida xulosa chiqarishga hech kimning haqi yo'qligini aytar ekanlar, insonlarni islom dini bilan tanishtirishning oqilona yo'llarini, ta'sirchan usullarini topish zarurligiga alohida urg'u berdilar:

“Bugun sessiya ishtirokchilariga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat”. Ushbu rezolyusiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan” [2:4].

Diniy ruhda yozilganligi uchungina o'rganilmay kelgan Imom Buxoriy, At-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandning sermazmun diniy-falsafiy asarlarining, «hukmron sinf» vakillari bo'lganligi uchun o'rganilishi man qilingan Amir Temur, Husayn Boyqaro, Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning adabiy-badiiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini endilikda har tomonlama tadqiq etilayotganligi ana shu buyuk o'zgarishlardan bir nishonadir.

Bugungi kunda yoshlarimizning to'laonli bilim olishlari uchun davlatimiz tomonidan qator imkoniyatlar eshigi ochib berilgan. Yoshlar- kelajagimiz poydevoridir. Shunday ekan yoshlarimizning bilim olishi bilan birgalikda ularning tarbiyasiga ham jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Payg'ambarimiz (s.a.v)ning qo'yidagi hadislarida “Insonlar farzandlariga chiroyli odob-ahloqdan ham yaxshiroq narsa bera olmaydi” [6]. Darhaqiqat, yaxshi tarbiya va odob-ahloqqa ega farzand ota-onasiga va vataniga hamisha maqtoqlar va olqishlar olib keladi, degan da'vati bor. “Tarix sahifalariga nazar tashlasak, o'tmishda yashab o'tgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturudiy, Abu Muin Nasafiy, Najmiddin Kubro, Mahmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Axror Valiy kabi aziz avliyolarimiz, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari alloma va mutafakkirlar tomonidan yozib qoldirgan asarlari va boy ilmiy merosi islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi” [1]. O'tmish ota-bobolarimizning turmush tarziga nazar tashlasak, o'sha davrlarda bugungi kunimizdagidek elektr energiyasi, tabiiy gaz, har xil mavzudagi kitoblar jamlanmasi va eng muhimi, davlat rahbari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmasa ham, o'zlarining aql idroki, zukkoligi, ilm olishga bo'lgan ishtiyoqi sababli dunyo ilm-faniga o'z hissasini qo'shadigan bebaho asarlar yarata olgan.

Barchamizga ma'lumki, XXI asr internet-texnologiyalari asri sanalganligi bois, bugungi kunda yoshlarimizning kitob mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishi biroq susayganday nazariyda. Kitobga bo'lgan muhabbatni oshirish maqsadida Prezidentimiz kitobxon tanlovi joriy etdi va bu o'z samarasini berdi. Maktab yoki kollejda ta'lim olayotgan farzand ota-onasi tomonidan olib berilgan eng so'nggi rusumdagi uyali aloqa vositasi bo'lgan telefon yoki internet tizimiga ulangan kompyuteri orqali qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishib, hattoki internetning tuzog'iga tushib qolganligini sezmay ham qoladilar. Bunday holatga tushib qolishning birinchi sababi shundan iboratki, tanishib chiqayotgan ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilmasligidir. Kollejni bitirgan ba'zi yoshlar, hattoki, chet ellarda ishlash uchun ushbu internet tizimi orqali tanimagan insonlar bilan bog'lanib, ularning soha davolariga uchi, mo'may daromad topish maqsadida ota-onasi, do'st-birodari, hattoki, agar oilali bo'lsa, oilasini tashlab ketish holatlarining guvohi bo'lamiz. Chet davlatlarga ishlash uchun borgan yoshlar ishlash bilan birgalikda noto'g'ri diniy qarashlar ta'siriga ham tushib qoladilar. Bunga birinchi navbatda ilmsizligi sabab bo'lsa, ikkinchi navbatda nafsidir.

Internetda nimalar his ettirashayotganligiga nazar tashlansa, islomiy harakatlarning global miqyosdagi tashviqoti markaziga aylanib bo'lgan, sayyoramizdagi mavjud har xil madaniyatlar, g'oyalar, qadriyatlar va manfaatlarni o'zida aks ettirgan yagona global tarmoqdir. Insoniyatning plyuralistik tabiatini o'zida to'laonli ifodalovchi yagona tarmoq bo'lgan internet, shak-shubhasiz, ba'zi masalalarni keng miqyosda nazoratga olishni taqozo qilmoqda. Bundaylar safiga terrorizmni parvarishlovchi, diniy ekstremistik g'oyalar tarqatuvchi, pornografiya kabi axloqsizlikka moyillikni rivojlantiruvchi saytlarni kiritish mumkin. Biroq mazkur saytlarga bo'lgan munosabat darajasi ham dunyo mamlakatlarida har xildir.

Ba'zi mamlakatlarda internetga ommaviy axborot vositasi sifatida qaraladi, ammo bunda ham ma'lum fundamental muammolar mavjud. Masalan, biron bir internet sahifa ma'lum davlatda OAV sifatida ro'yxatdan o'tib, o'z faoliyatini ushbu jamiyatga qaratsada, serverlar boshqa davlatda bo'lishi mumkin. Yoki ro'yxatdan o'tgan sahifaga xakerlar tomonidan hujum uyushtirilib, mazmun noqonuniy o'zgartirilganda ham, ushbu sahifa tahririyati aziyat chekadi, bunday hollar esa tez-tez uchrab turadi. Global miqyosda manfaatlarning ziddiyatli ekanligini e'tirof etgan holda, insoniyatning ba'zi masalalarda kelishuv va murosaga yuzlanishiga to'g'ri keladi. Shulardan biri, bizningcha, internetda terrorizmni parvarishlovchi sahifalarni nazorat qilishga yo'naltirilgan hamkorlikdir. Bu borada mutaxassislar texnologik, siyosiy, va albatta, huquqiy shijoat ko'rsatishi lozim.

Ayniqsa, hozirdanoq kelajak avlodlar xavfsizligi va barqarorligini ko'zlovchi xalqaro huquqiy normalarni qabul qilish – bu sohadagi eng jiddiy qadamlardan biri deb hisoblash lozim. Bu borada yana ilmu-ma'rifatning ahamiyati katta ekanligiga iymon keltirish mumkin. Ilmi, ya'ni iymoni mustahkam kishi har qanday tashqivotlarga ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi. “Ilm o'rganib, kasb-hunar egallashda fayzu-baraka bor, ma'naviyatning mevasi bor” [4:50]

Chet davlatlarda topgan ishini va olmoqchi bo'lgan ilmini o'zining yurtida ota-onasining, oilasining bag'rida emin-erkinlikda mukammal olishga imkoniyatlar to'laonli, emasmi?!

Internet orqali barchani tashvishga solayotgan xatarlarga qarshi kurash samarasini oshirish uchun, eng avvalo ota-onalar, mahalla faollari, maktab, kollej yoki oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari bilan birgalikda hamjihatlikda ishlashi lozim.

“Yoshlarimizning internetdan oqilona va to'g'ri yo'lda foydalanishlarini ta'minlash davr talabi. Chunki global tarmoqdan to'g'ri foydalana oladigan yoshlar vaqtini be'mani narsalarga zoya qilmasdan, faqat ilm bilan shug'ullanadi va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlarimizda yovuz xurujlarga qarshi kuch, immunitet, bilim shakllansa, ularga hech qanday tahdid o'zining zararli ta'sirini o'tkaza olmaydi” [9].

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning softligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi.. “Islom Nuri” gazetasi 2017 yil №13 (582).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. “Islom Nuri” gazetasi. 2017-yil. 30-sentabr №18 (587). 4-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov. I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. 13 –b
4. Bahauddinov Sh. Komil inson. –T.: “Movarounnahr”. 2015y., 50-b
5. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din. Birinchi kitob.–T.: Movarounnahr, 20 b.
6. Маўсуатул ҳадиси шәрийп-ал кутубус ситта (Алты саһиһ ҳәдислердиң топламы “Имом Термизий ҳадиси 1952” санлы ҳәдис)
7. Мавлоно Жалолиддин Румий Ичингдаги ичингдадир. –Т .: Ёзувчи, 10 б.
8. Тулепов А. Ишид фитнаси –Т.:Моварауннаһр, 98-б.